


Xorazm viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
2025-yil yanvar-mart oylari uchun (dastlabki ma'lumotlar)

- I. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi.
- II. Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi.
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.
- IV. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.
- V. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar.

I. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi

Xorazm viloyatida 2025-yil yanvar-mart oylarida o'rtacha oylik ish haqi 4 580,2 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,3 % ga o'sgan.

Yillar kesimda o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(yillik\)](#)

[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(choraklik\)](#)

[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(yillik\)](#)

II. Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar 2025-yilning yanvar-mart oylari uchun keltirilgan bo'lib, 2024-yilning mos davri bilan taqqoslangan.

	Ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Xorazm viloyati	4580,2	114,3
Urganch shahri	6257,2	115,6
Xiva shahri	4038,4	123,8
Bog'ot tumani	3692,8	116,3
Gurlan tumani	3250,2	111,0
Qo'shko'pir tumani	3474,8	113,2
Urganch tumani	3928,3	107,5
Hazorasp tumani	3267,8	111,8
Tuproqqal'a tumani	5805,0	113,4
Xonqa tumani	3567,1	110,5
Xiva tumani	3812,1	119,0
Shovot tumani	3622,3	117,0
Yangiariq tumani	4387,8	111,4
Yangibozor tumani	3421,9	117,3

Hududlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlari bo'yicha eng yuqori o'sish sur'atlari bir qator hududlarda kuzatildi. Jumladan, Xiva shahri bu borada yetakchilik qilib, o'rtacha oylik ish haqi 4 038,4 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 23,8 % ga o'sganligi kuzatildi.

Shuningdek, bu ko'rsatkich Xiva tumanida 3 812,1 ming so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 119,0 %), Yangibozor tumanida 3 421,9 ming so'mni (117,3 %), Shovot tumanida 3 622,3 ming so'mni (117,0 %), Bog'ot tumanida 3 692,8 ming so'mni (116,3 %) va Urganch shahrida 6 257,2 ming so'm (115,6 %)ni tashkil etgan.

O'z o'rnida, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Tuproqqal'a tumanida 5 805,0 ming so'm (113,4 %), Qo'shko'pir tumanida 3 474,8 ming so'mni (113,2 %), Hazorasp tumanida 3 267,8 ming so'mni (111,8 %), Yangiariq tumanida 4 387,8 ming so'm (111,4 %), Gurlan tumanida 3 250,2 ming so'mni (111,0 %), Xonqa tumanida 3 567,1 ming so'm (110,5 %), Urganch tumanida 3 928,3 ming so'mni (107,5 %) boshqa hududlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori haqida ma'lumotlar 2025-yilning yanvar-mart oylariga oid bo'lib, 2024-yilning shu davriga nisbatan taqqoslangan. Bu taqqoslash orqali sohalar kesimida farqlar va o'zgarishlar tahlil qilindi.

Iqtisodiy faoliyat turi nomi	Ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Sanoat	4 861,2	111,5
Qurilish	5 010,2	110,3
Savdo	3 455,3	110,0
Tashish va saqlash	9 600,8	110,1
Yashash va ovqatlanish	2 558,2	98,2
Axborot va aloqa	8 333,3	105,7
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati	12 548,8	113,0
Ta'lim	3 812,9	117,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3 842,4	109,6
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	3 505,9	122,4
O'rtacha	4 580,2	114,3

O'rtacha oylik nominal ish haqi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganida eng yuqori o'sish sur'atlari San'at, ko'ngil ochish dam olish sohasida qayd etilganligi, xususan, bu sohada 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 122,4 % ni tashkil qilgani, ish haqi miqdori esa 3 505,9 ming so'mga yetganligi kuzatildi.

Shuningdek, ta'lim yo'nalishlarida ham sezilarli o'sish sur'ati kuzatilib, ish haqi miqdori 3 812,9 ming so'mni tashkil etib, o'sish 17,3 % ga, bank, sug'urta, lizing, kredit va moliyaviy vositachilik faoliyati sohasida ish haqi miqdori 12 548,8 ming so'mni tashkil etib, 13,0 % ga, sanoat sohasida o'rtacha ish haqi 4 861,2 ming so'mni tashkil etib, 11,5 % ga, Qurilish sohalarida esa 5 010,2 ming so'mni tashkil etib, o'sish 10,3 % ga oshganligi kuzatildi.

Shu bilan birga, o'rtacha oylik nominal ish haqi savdo sohasida 3 455,3 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,0 % ga, tashish va saqlash sohasida 9 600,8 ming so'mni tashkil etib, 10,1 % ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishida 3 842,4 ming so'mni tashkil etib, 9,6 % ga, axborot va aloqa sohasida 8 333,3 ming so'mni tashkil etib, 5,7 % ga o'sgan bo'lsada boshqa tarmoqlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

IV. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdorining so'nggi besh yildagi o'zgarishi tahlil etilganida, 2025-yilning 1-choragida bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida ish haqi miqdori 12 548,8 ming so'mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 6 374,4 ming so'mga oshganligi kuzatildi.


Shuningdek, so'nggi besh yilda axborot va aloqa sohasi bo'yicha ish haqi miqdori 5 442,0 ming so'mga, tashish va saqlash sohasida 5 411,5 ming so'mga, sanoat sohasida 2 143,3 ming so'mga, qurilish sohasida 1 840,3 ming so'mga, san'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasida 1 720,5 ming so'mga ko'payganligi kuzatildi.

O'rtacha oylik ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Sanoat sohasida o'rtacha oylik ish haqi 4 861,2 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida 7 545,6 ming so'm, ishlab chiqarish sanoati sohasida 4 497,8 ming so'm, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida 3 444,8 ming so'm ekanligi kuzatildi.

Sanoat sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Savdo sohasida o'rtacha oylik ish haqi 3 455,3 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash tarmog'ida 4 032,2 ming so'mni, avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari ulgurji savdo sohasida 4 163,3 ming so'mni, avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari chakana savdo sohasida 2 233,0 ming so'mni tashkil etgan.

Savdo sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Tashish va saqlash sohasida o'rtacha oylik ish haqi 9 600,8 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning ayrim sohalari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori ombor xo'jaligi va yordamchi transport sohasida 8 868,8 ming so'mni, quruqlikdagi va quvur transporti sohasida 10 584,6 ming so'mni, pochta va kuryerlik faoliyati sohasida 2 834,4 ming so'mni tashkil etgan.

Tashish va saqlash sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi, ming so'm



Axborot va aloqa sohasida o'rtacha oylik ish haqi 8 333,3 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning ayrim sohalari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar sohasida 8 279,0 ming so'm, axborot xizmati ko'rsatish sohasida 2 964,9 ming so'mni, aloqa sohasida 8 751,5 ming so'mni tashkil etgan.

Axborot va aloqa sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi, ming so'm




Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi 12 548,8 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi majburiy ijtimoiy sug'urtalashdan tashqari, qayta sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari sohasida 11 184,3 ming so'mni, sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar sohasida 12 659,4 ming so'mni tashkil etgan.

**Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida
o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm**


— majburiy ijtimoiy sug'urtalashdan tashqari, qayta sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari faoliyati

— sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar



**Ta'lim sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi,
ming so'm**

Ta'lim sohasida o'rtacha oylik ish haqi 3 812,9 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi oliy ta'lim sohasida 9 707,6 ming so'mni, texnik va professional ta'lim sohasida 3 742,4 ming so'mni, umumiy o'rta ta'lim sohasida 3 922,3 ming so'mni, maktabgacha ta'lim sohasida esa 2 018,4 ming so'mni tashkil etgan.



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)



V. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar korxona va tashkilotlar tomonidan elektron shaklda, onlayn tarzda taqdim etilgan statistika hisobotlari ma'lumotlari asosida kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi korxonalarisiz shakllantirilgan.

Respublikaning barcha korxona va tashkilotlari, jumladan kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer xo'jaliklari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar yilda bir marotaba shakllantirilib, e'lon qilinadi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi PF-4609-son Farmoniga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlari va fermer xo'jaliklari statistika hisobotlarini statistika idoralariga yilda bir marotaba taqdim etishi belgilangan.

Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

Hisobot oyi uchun nominal hisoblangan ish haqi quyidagicha hisoblanadi:

$$W_n = \frac{F}{L}$$

bunda:

W_n – nominal hisoblangan ish haqi;

F – hisobot oyi uchun jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;

L – hisobot oyi uchun xodimlarning o'rtacha soni;

Nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqini hisoblash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024-yil 31-maydagi 122-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iqtisodiyotda ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Metama'lumot uchun havola:

[Iqtisodiyot bo'yicha ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom](#)